

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATN USTIDA ISHLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Mirzayeva Dilrabo Ulug'bekovna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti assistent o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'qish savodxonligiga o'rgatish metodikasi, boshlang'ich sinflarning 3-4-sinflarida o'qib tushunish, ko'nikmalarini rivojlantirish borasida fikr yuritilgan. Boshlang'ich ta'lim o'qib tushunish malakasini yanada takomillashtirish. Maqola orqali o'quvchilarni o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish. Har bir matnni o'qigan o'quvchiga matnni uning ichidagi har bir so'zga e'tibor bilan o'qish shu bilan birgalikda matn yuzasidan fikr yuritishni ham o'rganishadi. Matnni qanday o'qish kerak, nimalar e'tibor berib o'qish kerak shular haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar : so'z, grafema, persepsiya, matn, so'z, idrok, gap, analitik tushunish, tanqidiy tushunish, diagrammalar, Verbial –sintagmatik daraja, designativ daraja.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАБОТЫ НАД ТЕКСТОМ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Мирзаева Дилрабо Улугбековна, Преподаватель-ассистент Ташкентского
гуманитарного университета*

Аннотация: В данной статье рассматривается методика обучения грамоте чтения, развития понимания и навыков прочитанного в 3-м и 4-м классах начальной школы. Дальнейшее совершенствование навыков понимания прочитанного в начальном образовании. Формирование навыков понимания прочитанного у учащихся посредством статей. Одновременно они учатся думать о тексте. Как читать текст и на что обращать внимание при чтении текста. Обсуждалось.

Ключевые слова: слово, графема, восприятие, текст, слово, восприятие, предложение, аналитическое понимание, критическое понимание, диаграммы, Вербально-синтагматический уровень, обозначающий уровень

IMPROVING THE WORK ON THE TEXT IN PRIMARY EDUCATION

*Mirzayeva Dilrabo Ulugbekovna,
Assistant professor at Tashkent University of the Humanities*

Abstract : In this regard, the method of teaching literacy in the 3rd and 4th grades, and the development of support were considered. Start teaching to further ensure the reader's competence. Monitoring the students' reading skills through the article. Read the text to the student who has read each text, paying attention to every word in it. transfer At the same time, they learn how to read the text and think about it.

Key words: word, grapheme, perception, text, word, perception, sentence, analytical understanding, critical understanding, diagrams, Verbial - syntagmatic level, designative level.

Zamonaviy ta'limning maqsadi faqat bilim berish emas, qobiliyat va fazilatlarini rivojlantirish. Darhaqiqat kam vaqt sarflab, sifatli natijaga erishishni talab etayotgan hozirgi tezkor zamon ta'limdan faqatgina bilimni emas, balki bilimni hayotda qo'llay oladigan ijodkor, tashabbuskor, moslashuvchan avlodni tarbiyalash taqazo etadi. Bu esa ta'lim jarayonida bir qancha muhim vazifalarni kun

tartibiga chiqarmoqda. Shuning uchun ta'lim turlari: maktabgacha ta'lim umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim professional ta'lim hamda oliy ta'lim standartlari o'quv dasturlari o'rtasida uzviy bog'liqlik qaytadan taxlil o'rganib chiqilib ta'lim turlarining ona tili ta'limidan maqsadi konkretlashtirilib aniqlashtirib olinmoqda. O'quv dasturlaridagi bir birini takrorlaydigan murakkabligi nuqtayi nazaridan yosh xususiyati mos bo'lmagan mavzular o'zaro moslashtirilmogda, ortiqcha yuklamalar optimallashtirilmogda. Bir so'z bilan aytganda, fanning ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib va til o'zlashtirish qonuniyatlari asosida ona tili fanidan milliy o'quv dasturi ishlab chiqilmogda. Shuni ham ta'kidlashimiz kerakki, Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish darsliklarni yangilash, o'qitish sifatini oshirish bilangina ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi, chunki har qanday ta'limning sifatini belgilaydigan, ko'rsatadigan baxolash mexanizmi bo'lishi kerak.

Psixolingvistika oid ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, insonlar o'rtasidagi muloqat jarayoni to'rt xil kognitiv malakasi asosida amalga oshadi, mazkur nutqiy malaka asosida amalga oshadi, mazkur nutqiy malakalar o'zaro bog'likda rivojlanadi. Bu ko'nikmalar og'zaki va yozma nutq bilan bog'liq. So'zlash va tinglab tushunish malakalari og'zaki nutq bilan bog'liq bo'lsa yozma yozma nutq bilan bog'liq tarzda amalga oshadi. Shuningdek, mazkur ko'nikmalar muloqot jarayonida mazmunni ifodalashi yoki idrok qilishi nuqtayi nazaridan ham bir-biridan farqlanadi. Umuman bu jarayonida psixolingvistikada kodlash (fikrni signallar : tovush yoki grafemalar bilan ifodalash) va dekodlash (grafemalar yoki tovush bilan ifodalangan ma'lumotlarni idrok qilish) jarayoni deb yuritiladi .Bu tushunchalar psixolingvistik tadqiqotlarda o'rganilgan, ilmiy asoslangan. Dekodlash jarayoni psixologiyada nutqiy persepsiya deb ataladi. Persepsiya – bu insonning borliqni idrok qilish jarayoni. Nutqiy persepsiya esa bu verbal va visual birliklar yordamida borliqdagi hodisalarni idrok qilish talqin qilish yoki va tushunish jarayonidir. Idrok qilish tinglab tushunish yoki o'qib tushunish tarzida amalga oshadi. Tinglab tushunish og'zaki nutqda ifodalangan ma'lumotlarni anglash, fahmlash, idrok qilish demakdir. O'qib tushunish esa grafemalarda, tasvirlarda, chizmalarda rasmlarda ifodalangan ma'lumotlarni anglash idrok qilish fahmlashdir. O'qib tushunish jarayonida matndagi turli chiziqlar majmunni qabul qilamiz, uylar grafemalar deb ataladi. U vizual kirish leksikonidagi mavjud so'zlar bilan solishtiriladi va so'z chizmadan iborat tashqi shaklidan mazmunidan iborat mohiyatga aylanadi hamda idrok qilinadi. Ya'ni mazkur ta'svirga bog'langan ma'no faollashadi . Bir so'z bilan aytganda, yozma matndagi so'zni turli belgilar tizimi – grafemalar yig'indisi sifatida qabul qilamiz va uni mazmun parchasi sifatida idrok qila boshlaymiz. Shuni ham ta'kidlash kerakki, "matnni o'qish, uni tushunish jarayoni pedagogik (biror shaxs tamonidan takrorlab o'rgatish psixologik (diqqatni yiqqan holda o'rganilayotgan narsaga qarash) jismoniy (boshqa xarakatlarni to'xtatgan holda ko'zni faqat belgi bo'g'in yoki so'zga qaratish) va fiziologik (o'rgatilayotgan harf yoki so'zni takrorlay olish, o'qiy olish qobiliyatining mavjud yoki mavjud emasligi) jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham o'qib tushunish murakkab nutqiy psixofizologik faoliyat. Bu jarayon haqida ko'plab xorij va o'zbek olimlari ilmiy ishlar qilgan, tajribalar o'tkazgan va ularning tahlillari asosida natijani taqdim qilgan. Fiziologlarning ma'lumotiga ko'ra " o'qib tushunish bosh miyaning ensa qismidagi neyronlar ta'sirlanishi asosida amalga oshadi. Yani ko'z sohasining xarakatlanishi ko'rish va sezgi qobiliyatlari bosh miya qismidagi o'rta miyaning tepasida joylashgan oraliq miya qismidagi o'rta miyaning tepasida joylashgan oraliq miya funksiyasi orqali boshqariladi. Oraliq miya bosh miya yarimsharlari bilan qoplangan u yerda ko'rish do'moqlari joylashgan. Ko'rish do'mbog'i –tuxumsimon shaklda bir juft kulrang modda (nerv xujayra to'plami) unda barcha sezgi azolari orqali seziladigan ta'sirlari

olsin ko'rish do'mbog'i orqali qabul qilinib, keyin bosh miya yarimsharlari markazlariga o'tkaziladi "Bu jarayon sog'lom odamlarda deyarli bir xil kechadi.

Shuningdek matnni o'qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon, uni tushunish olimlar tomonidan bir qancha bosqichlarga ajratiladi. Jahon tilshunosligida T.A. Apoolonskaya, Y.V Gleyban, I.Z. Manoli kabi olimlar matnni idrok qilish, qabul qilishning 3 ta asosiy darajasini belgilaydi.

-verbial –sintagmatik daraja

- designativ daraja

-dinativ daraja

O'qish va tushunish — bu matnni qayta ishlash, uning ma'nosini tushunish va o'qiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalar bilan bog'lab anglay olish qobiliyatidir. So'zlarning lug'aviy ma'nosini bilish, so'zlarning kontekstual ma'nosini bilish, matn mazmuniy bloklarining o'zaro bog'lanishini anglash, matn tarkibidagi parchalar asosida xulosa chiqarish, matndagi asosiy fikrini aniqlash, berilgan savollarga matn asosida javob bera olish, matnda ishlatilgan badiiy san'atlar yoki so'z birikmalarini tanib, ajratib olish va ohangini aniqlash, vaziyatning kayfiyatini (tasdiq, inkor, so'roq qilish, buyruq berish), muallifning maqsadi, niyati va nuqtai nazarini aniqlash va muallif to'g'risida xulosalar chiqarish qobiliyatlari o'qilgan matnni samarali tushunish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar hisoblanadi. (diskurs-semantika).

Matnni o'qib tushunish qobiliyatiga o'quvchining yuqoridagi ko'nikmalari hamda ma'lumotni qayta ishlash qobiliyati ta'sir ko'rsatadi. Agar o'quvchi so'zning ma'nosini bilmasa, u matnni qayta ishlash uchun juda ko'p vaqt sarflaydi, chunki u matndagi tushunilmagan so'zlarni individual tarzda anglashga urinadi, bu esa tushunishga ham halal beradi. O'qib tushunish malakasini rivojlantirish uchun ko'plab mashqlar mavjud, ular orasida so'z boyligini oshirish, matnni tanqidiy tahlil qilish, maydalab o'qish.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni fikr bildirishga o'rgatish ko'nikmasi oddiy gap tuzishdan boshlanib rasm yoki matnga munosabat bildirish, so'ngra kichik matn yaratish bosqichlarida kechadi. Bunday paytda o'qituvchining faolligi, yondashuvi, innovatsion metod va usullarni qay darajada qo'llay olishligi muhim ahamiyat kasb etadi. So'z darajasidagi ma'lumotni tushunish – grafema va grafik tasvirlarni tanish, chizmalarni, diagrammalarni o'qish, uni mazmunga aylantirish, so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini tushunish, grammatik shakllarning vazifasi hamda ma'nosini tushunish. Jumla darajasidagi ma'lumotni tushunish – gap va jummalarning matndagi vazifasi hamda mazmunini idrok qilish, ochiq va yashirin ma'lumotlarni fahmlash. Matn darajasidagi ma'lumotni tushunish – xatboshilar va matnning umumiy mazmunini tushunish, matnning grammatik qurilishini anglash, matndagi ma'lumotlarni integratsiya qilish, matndagi asosiy va qo'shimcha ma'lumotlarni idrok qilish, matnni mazmuniy bloklarga ajratish.

O'qib tushunish – o'qilayotgan matnning ma'nosini tushunish, uni sharhlash va unga munosabatini shakllantirish qobiliyati. Bu boshlang'ich maktabda o'quvchilarga o'rgatish kerak bo'lgan eng muhim mahoratdir. O'qib tushunish darajalari: So'zma-so'z tushunish. Matnni takrorlash yoki qayta yaratish, asosiy ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish, asosiy voqealar, g'oya, joy, vaqt, xronologiya, syujet, harakatni aniqlash qobiliyatidir. Analitik tushunish. Tushunishning keyingi darajasi - muallif tomonidan qo'yilgan ma'noni ochib berish, sabab-natija munosabatlarini tushunish, tanish va yangi ma'lumotlarni tahlil qilish va izohlash (talqin qilish), taqqoslash qobiliyati. Tanqidiy tushunish. Tanqidiy yoki baholovchi tushunish - bu matnga o'z munosabatini bildirish va ifodalash. O'qib tushunish ko'plab omillarga bog'liq: so'zlarning ma'nolarini tushunish;

to'g'ri o'qish (agar o'quvchi so'zlarni noto'g'ri o'qisa, u butun gapning ma'nosini tushunmaydi); o'qishning ravonligi (tezligi) (agar o'quvchi hali ham bo'g'inlab o'qisa, u o'qilgan narsaning ma'nosini «tushunishi» qiyin bo'ladi); o'quvchilarning hayotiy tajribasi va bilimlari; xotira, fikrlash, tasavvur qilish qobiliyatlarining rivojlanganligi muhimdir

Ona tili ta'limida badiiy matnni o'qib tushunish malakasini rivojlantirishda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirish lozim bo'ladi:

- ko'chma ma'noda ishlatilgan leksik birliklarning ma'nosini anglash;
- matndagi ibora, maqol, hikmatli so'zlar ma'nosini tushunish;
- matnda qo'llangan sintaktik birlikning vazifasini anglash;
- matnda ochiq va yashirin ifodalangan ma'lumotlarni idrok etish;
- asar obrazlariga tavsif berish;
- matnning yoki uning qismlarining umumiy ma'nosini tushunish;
- matn bilan ishlayotganda o'zlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalana olish;

– matn tarkibidagi voqea-hodisalar o'rtasidagi “sabab-oqibat-yechim”, “shakl va mazmun mutunosibligi”, “inkorni inkor qilish”, “qiyoslash”, “izchillik” kabi falsafiy qonuniyatlarni anglash;

- matnda muallif maqsadini aniqlash;
- matn g'oyasini anglash;
- matn mazmunini tushunishi va talqin qila olish;
- matndagi fikrlar va muallif nuqtai nazarining aniqligini baholay olish;
- matndan olingan bilim va tushunchalarni amalda tatbiq qila olish.

Umuman, o'quvchilarning o'qib tushunish malakasini baholash mazmunini aniqlashtirish bevosita matnni tushunish ko'nikmasini rivojlantirish qonuniyatlariga asoslanadi. Biroq ona tilidagi matnni o'qib tushunishda jumla va matn darajasidagi ma'lumotni tushunishga, anglash darajasida tushunishga qaratilgan topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Matn o'qishning pedagogik asosi o'qish davomida amalga oshiriladigan bir nechta amallardan iborat. Bulardan biri to'g'ri o'qishdir. Bir nechta metodik adabiyotlarda bu faoliyatga quyidagicha ta'rif beriladi. “To'g'ri o'qish, xato qilmasdan yanglishmasdan o'qishdir, ya'ni to'g'ri o'qish so'zni grafema holatidan fonema holatiga to'g'ri o'tkaza olish qo'shimchalarni to'g'ri va tartib bilan talaffuz qilish, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushurib qoldirmay, boshqa tovushni qo'shmay, harflar o'rnini almashtirmay so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zlarning ma'noni chuqur tushuna olmaslikdan ba'zi ko'p bo'g'inli so'zlarning talaffuzdagi qiyinchilikda sababli gap yoki matnning umumiy mazmunni tahlil qila olmasligi mumkin. Ammo yuqori sinf o'quvchilari yetarli darajada tez va ifodali o'qish shu bilan birga o'qilgan ma'lumotni tushuna olish ko'nikmasini egallagan bo'ladi. Matn o'qish ko'nikmasining pedagogik asoslaridan yani bu manbaning ongli o'qilishidir. Ongli o'qish deganda birinchi navbatda so'zning mustaqil ma'nosini so'zlarni bir biri bilan bog'lanish munosabatini tushunish matn mazmunidan xulosa chiqara olish, unda ta'svirlangan voqea –hodisalariga o'z munosabatini bildirsa olish tushuniladi. Matnni o'qituvchi bilan birgalikda qilinadigan tahlillari davomida o'quvchida so'zning kontekstdagi ma'nosini tushuna borish ko'nikmasi shakllanadi. O'qituvchi matnning ongli o'qilganligi ya'ni tushunarli bo'lganligi aniqlash maqsadida matn yuzasidan topshiriqlar tayyorlashi lozim, masalan matning turli o'rinlaridan so'zlar, gaplar tanlab olinadi. Gap aynan emas balki ma'nosi saqlangan holda boshqa ko'rinishda qurilishi ham mumkin. Va mazkur so'zlar tarkibidagi ba'zi harflar, gaplar tarkibidagi

soʻzlar tushurib qoldiriladi. Oʻquvchilar asl matnni oʻqib boʻlganlaridan soʻng uning tushunarligini aniqlash uchun bu topshiriqni bajaradilar. Boshlangʻich sinflar “Oʻqish” kitobida qisqa hikoya, matn berilgan boʻlib, ulardan maqsad kichik maktab yoshidagi oʻquvchining oʻqish koʻnikmasi shakllantirishdir. Boshlangʻich sinfdan yuqori sinfga oʻtgan oʻquvchilar uchun “Oʻqish” kitobining oʻrniga ona tili va adabiyot fanlar kiritilib ularda oʻqish koʻnikmasidan yuqori boʻlgan bosqich oʻqilganlarni “tushunish” darajasini shakllantirish va rivojlantirish maqsad qilinadi. Bu maʼlumot maktab ona tili darsliklarda asosan matnlar, baʼzan adabiyot namunaridan parcha koʻrishida ham beriladi. Ularni oʻquvchiga havola qilishdan maqsad matnni ona tili fanida egallagan Grammatik qoidalariga koʻra tahlil qilish, soʻzlarning qanday uslubga xosligini aniqlash va shu kabi tilshunoslikka aloqador bilimlarni sinashdir. Adabiyot darsliklarida beriladigan badiiy matnlar esa obrazlikka yogʻrilgan soʻzlar har doim ham oʻz manosida emas konteks maʼnosida kelib chiqqan holda rango rang maʼnolarini izlashimiz toʻgʻri boʻladi. Maʼlumki, oldingi darsliklarda koʻproq grammatik qoidalar va grammatik topshiriqlar koʻp edi ammo oʻquvchi tayyor qoidalar asosida ishlash bilan cheklanib qolgan edi, mustaqil fikrlamas edi. Hozirgi vaqtga kelib matnlarimizni tahlil qilishda, ogʻzaki va yozma nutqni shakllantirishda matnni oʻqib tushunish, tinglab tushunish, nutq soʻzlash va yozma savodxonlik kabi tamoyillardan foydalanilmoqda. Bularidan oʻqib tushunish tarmogʻi oʻquvchini oʻylashga, fikrlashga undaydi. Oʻqib tushunish-matnni mazmunan anglashga doir nutqiy faoliyat turi. Shuningdek, eshitish organlaridan koʻra koʻrish organlari ancha layoqatli, shu sababdan matn koʻrinishidagi xabar eshitilgan xabardan ishonchliroqdir. Matnni oʻqish davomida ijodkor aytmoqchi boʻlgan tagmaʼno mazmunni sezishimiz lozim va unga oʻzimiz xulosa bera olishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, har bir oʻquvchi fikrni ogʻzaki yoki yozma ifodalash, oʻzgalar fikrini matndagi axborotlarni idrok eta olishi psixofiziologik jarayon, baxolashda foydalaniladigan savol va topshiriqlar uning nutqiy malaka va tafakkurini rivojlantirishga ruhiy jihatdan ham, jismoniy jihatdan ham boʻlishi, ularda mustaqil munosabatni bayon etishga, hayotni va oʻzgarishlarni anglash koʻnikmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak. Oʻqib tushunish koʻnikmasini, mukammal rivojlantirib borish uchun berilgan matnlarning oʻquvchi uchun tushunarli boʻlishi va yoshiga mos tarzda olinishi tavsiya etiladi.

Matnni oʻqib tushunish malakasini rivojlantirish da soʻz manosini kontekst bilan bogʻlab berish, matndagi maʼlumotni turli shakllarda ifodalash, tafsilotlarga alohida urgʻu berish zarur. Baʼzi matnlarda sonlar turli qiymatdagi bir necha raqamlarning matnda kelishi ularning chalkashtirilishiga olib kelgan. Bundan kelib chiqadiki shu kabi malumotlar berilganda ularni taʼkidlaydigan qoʻshimcha vositalardan foydalanish kerak yoki oʻqituvchi raqam bilan bogʻliqhar bir maʼlumotlarga oʻquvchining diqqatini jalb etish kerak boʻladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Azimova I. Oʻzbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: monografiya. –T., 2019. 158 bet
2. 2. Ismailov A. v.b., Xalqaro tadqiqotlarda oʻquvchilarning oʻqish savodxonligini baholash. – Toshkent, «Sharq», 2019, 92 b.
3. J. Charles Alderson. Assessing Reading. Cambridge University Press 2000. Mavlonova K., Hakimova N.. Ona tili darslarida oʻqish savodxonligini egallash imkoniyatlari. Oʻzbek tilshunosligini rivojlantirishning dolzarb muammolari. Res.ilm.amal.konf. mater. – Toshkent, Oʻzkitobsavdo nashriyoti, 2020. 340 b. –B. 217–224
4. Oʻzbek tilini oʻrganish va oʻqitishni qayta qurish hamda takomillashtirish dolzarb masalalari. Oʻzbek tili doimiy anjumani birinchi yigʻinining tezislari. –Samarqand, 1991.
5. Sharopova F.V. 5-sinf oʻquvchilarida matnni oʻqib tushunish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari. ped.fan.magist. dis. –T., 2020. – 108b